

## **TALABALARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI**

*Sharopov Dilshod Shirinboy o'g'li –*

*BuxDPI "Chaqiriqqacha harbiy ta'lif" fakulteti II bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lif muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlanirish muammo sifatida qaralib, uning yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu maqolada talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlanirishning asosiy vazifalari, asosiy omillari aniqlashtirilgan hamda ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lif, milliy iftixor, ta'lif-tarbiya, islohot, rivojlanish, harbiy vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rify ishlar, sport o'yinlari, milliy g'urur, Vatanga sadoqat.

**Абстрактный:** В статье рассматривается проблема развития чувства национальной гордости у студентов высших учебных заведений и анализируются ее направления. В статье также раскрываются основные задачи и ключевые факторы развития чувства национальной гордости у студентов, дается их анализ с научно-педагогической точки зрения.

**Ключевые слова:** высшее образование, национальная гордость, образование, реформа, развитие, военный патриотизм, духовно-просветительская работа, спортивные игры, национальная гордость, верность Родине.

**Abstract:** This article considers the development of a sense of national pride in students of higher educational institutions as a problem and analyzes its directions. Also, this article clarifies the main tasks and main factors of developing a sense of national pride in students and analyzes them from a scientific and pedagogical perspective.

**Keywords:** higher education, national pride, education, reform, development, military patriotism, spiritual and educational work, sports games, national pride,

*loyalty to the Motherland.*

Xalqimizning boy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish borasida muhim islohotlar amalga oshirib kelinayotgani hech kimga sir emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev takidlaganidek, "Meni doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq. Biz bu yo'nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ammo ularning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e'tibor berishimiz zarur" [1, 257]. Bu yoshlarni yanada shijoatli, mard va jasur, milliy g'ururi yetuk, ma'naviy salohiyatlari, jismonan barkamol bo'lib voyaga yetishlariga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qarorlarida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalashning bir qator dolzarb vazifalari belgilab berilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 3898-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini oshirish Konsepsiysi" da konsepsiyanı amalga oshirish ishlari uch bosqichda amalga oshirilishi belgilangan hamda quyidagi masalalarga:

buyuk tariximiz, ulug' alloma va mutafakkirlarimiz, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning mohiyatini, ajdodlar boy merosining hayotimizdag'i o'rni va ahamiyatini chuqur tushuntirishga;

qalbida Vatan taqdiriga yuksak daxldorlik, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga;

Vatan himoyasi muqaddas va harbiylik sharafli kasb ekanligi, jonajon yurti istiqboli va ravnaqi uchun kerakli mutaxassislikni tanlash zarurligiga;

yorqin misollar, adabiy asarlar, kino va teatr spektakllardagi qahramonlar orqali ular qalbida harbiy kasbga bo'lgan g'urur va iftixor tuyg'ularini

kuchaytirishga;

harbiy tartib-intizom, odob-axloq, qat'iy ijrochilik, javobgarlik va mas'uliyat tushunchalarini singdirishga;

yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va qat'iy e'tiqodni, milliy o'zlik va muqaddas dinimizdagi yuksak axloqiy mezonlar orqali ularda turli ko'rinishdagi yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga;

talabalarning turli fan yo'nalishlari, chet tillari va axborot texnologiyalari, shu jumladan, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha bilimlarini mustahkamlashga;

ta'lif muassasasida va sog'lomlashtirish oromgohlarida o'tkaziladigan «Temurbekning izdoshlari», «O'zbekiston farzandlari botir bo'lur» kabi tanlov va sport musobaqalarida faol ishtirok etishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Har qanday og'ir va murakkab vaziyatda Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalarni, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifikat, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali vatanparvar, sadoqatli hamda shijoatli yoshlarni kamol toptirish Konsepsiyaning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Shu o'rinda, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, unda mamlakat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish bo'yicha burch tuyg'usini shakllantirish borasidagi tadbirlar lozim darajada olib borilmayatganligini inobaga olib, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator kamchiliklar mavjud, xususan:

sportning mazkur turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning puxta tizimi yo'lga qo'yilmagan;

sport kadrlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning samarali tizimi joriy etilmagan;

terma jamoalarni tayyorlash va musobaqalar o'tkazish uchun sport infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasi yetarli darajada rivojlanmagan;

aholi, ayniqsa, yosh avlod o'rtasida sportning texnik va amaliy turlarini

ommalashtirish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rilmayatganligi ta'kidlanib o'tildi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, o'yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rang-barangligini ta'minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi:

- ma'ruza o'qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;
- boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lgan shaxslar bilan uchrashuvlar;
- ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;
- to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;
- jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish;
- teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo'shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar va elektron o'yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;
- urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar qatnashchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o'tkazish va ekskursiyalar uyushtirish.


Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish quyidagi pedagogik-psixologik omillar orqali amalga oshiriladi:

- auditoriya va auditoriyadan tashqari harbiy mashg'ulotlar jarayonida fanlarning maqsadli bog'liqligi;

- Vatan tarixi va buguni haqida suhbat hamda munozaralar tashkil etish;
- tarbiyaviy ishlar: milliy qahramonlar va davlat arboblari Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va shu kabilalar) faoliyatiga bag'ishlangan kechalar uyushtirish;
- harbiy qismlarda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyotini amalga oshirish;
- habiy sohadagi bellashuvlar va sport musobaqalarini tashkil etish;
- harbiy va sport to'garaklarida tayyorlagan mashqlarni ko'rsatish va shu kabilalar.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantiruvchi omillarini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish omillari.**

Milliy iftixor tarbiyasining bosh vazifasi mustaqil, o'z yo'lidan rivojlanayotgan Vatanimiz uchun, g'urur, Qurolli Kuchlarga nisbatan muhabbat, jangovar va mehnat urf - odtlarimizga sadoqat, harbiy mehnatga hurmat hissini har taraflama rivojlantirish, ozodlik va mustaqilligimizni, qo'limizdagi qurol bilan

muhofaza qilishga doimiy tayyorlikni shakllantirish, o'z fuqarolik burchini ado etishdir. Vatanga sadoqat tarbiyasi yoshlarda harbiy xizmatga qiziqishni rivojlantirish, harbiy kasblarni egalash, yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmatga tayyorlashga yordam berishni ko'zda tutadi.

Milliy iftixor tarbiyasining maqsadi Vatanni himoya qilish uchun tayyorlikni ta'minlaydigan fikr, ishonchini, dunyoqarashni shakllantirish, unga bor kuchni, kerak bo'lsa hayotini ham berish, shuningdek, bo'lajak jangchilarning ma'naviy – ruhiy, axloqiy – intizomiy, jangovar xislatlarini tarbiyalashdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning asosiy vazifalarini aniq bilishlari kerak, bular:

1. Talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va fuqarolik tarbiyasi sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish.
2. Yosh avlodda milliy iftixor, Vatanga xiz mat qilishga tayyorlik va uning qurolli mudofaa tuyg'ularini yuksaltirish.
3. Vatan va ona yurt tarixi va madaniyatini o'rganish.
4. Vatan himoyachilari xotirasini abadiylashtirish bo'yicha tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda ishtirok etish.
5. O'zbekiston armiyasining eng yaxshi an'analarini o'tkazish va rivojlantirish.
6. Yoshlar o'rtasida siyosiy va diniy ekstremizm ko'rinishlariga qarshi kurashish.
7. Talabalarning jismoniy rivojlanishi, sog'lom turmush tarzini shakllantirish.
8. Talabalarni harbiy xizmatga tayyorlashda ishtirok etish.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish ularda yuksak vatanparvarlik ongini, o'z Vataniga sadoqat tuyg'usini, Vatan manfaatlarini himoya qilish bo'yicha fuqarolik burchi va konstitutsiyaviy majburiyatlarini bajarishga tayyorlikni shakllantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli faoliyatdir. Insonning yoshlik davridagi eng muhim yutug'i – o'ziga ishonish, bilgan va qila oladigan narsasiga ishonish, o'zini o'zi qadrlashdir. Bu

fazilatlar vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida turli vositalar va usullar orqali shakllanishi kerak. Qahramonlar kurashi, eng yaxshi Vatan o‘g‘lonlarining jasoratlari vatanparvarlik tarbiyasining asosiga aylanishi kerak. Qahramon shaxslar haqida gapirganda, ularning axloqiy tamoyillari va harakatlarining motivlarini ta’kidlash kerak, chunki bu bolaning ruhiga ta’sir qilishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston. 2021. – B 257.
2. Ismoilova Z.K. Milliy g‘oya va ma’naviy – axloqiy tarbiya. O‘quv qo‘llanma. – T., Moliya, 2007. - 71 b.
3. Olimov Sh.Sh. “Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari”- T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2015 y. -228 b.
4. Ro‘zieva D.I. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Dis. ... ped.fan.dok.-T., 2007.-328 b.